



“TIRILISH” – INSONNING MA’NAVIY UYG’ONISHI HAQIDAGI ROMAN

Nafisaxon Sulaymanova Yashin qizi

Angren universiteti “Til va uni o’qitish” kafedrası o’qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Lev Tolstoyning “Tirilish” asari, voqealar liniyasida muallif obrazining aks etishi, adib hamda qahramoni Nexlyudov o’rtasidagi mushtarak jihatlar haqida so’z yuritilgan.

Kalit so’zlar: ma’naviy uyg’onish, adolatsiz jamiyat, katarsis, duxobar, “uch jism muammosi”, telba transformatsiyasi.

Annotation

In this article “Resurrection” by Leo Tolstoy, reflection of the author’s image in the story line, common aspects between the writer and his hero Nekhlyudov are discussed.

Keywords: spiritual awakening, an unjust society, catharsis, dukhobar, “three body problem”, crazy transformation.

Umrining so’nggi yillarida Tolstoy axloqiy, siyosiy va diniy mavzularda yoza boshlagan. U har qanday cherkov yoki hukumat tomonidan o’rnatilgan qoidalarga emas, balki Xudoni sevish, uning amrini bajarish orqali shaxsiy kamolotga intilish hayotning eng yaxshi yo’li ekanligiga qat’iy ishonch hosil qildi. 1901-yilga kelib, Tolstoyning radikal qarashlari uning rus pravoslav cherkovidan chetlashilishiga olib keldi. Tolstoy dunyoqarashida tobora kuchayib borayotgan ziddiyatlar uning so’nggi yirik asarlaridan biri “Tirilish” romani (1889-1899) da o’z aksini topdi. Dastlab asar nomi “Konevskaya hikoyasi” bo’lgan. 1887-yil iyun oyida huquqshunos Anatoliy Koni so’zlab bergan bir sud jarayoni haqidagi hikoya asar yaratilishiga turtki bo’lgan. 1889-yil 6-dekabr kuni Tolstoy kundaligiga “Koni aytgan hikoya tobora butun fikr-u zikrimni egallab bormoqda”, deb yozadi.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th January, 2025

Shundan so'ng adib hayotiy vaziyatni badiiylashtirib, qog'ozga tushira boshlaydi va bu jarayon bir necha yillarni talab etadi. Tolstoy roman ustida ish olib borayotgan chog'ida Butirka qamoqxonasi mudiri I. M. Vinogradovnikiga tashrif buyurib, qamoqxona hayoti haqida so'raydi. 1899-yil aprelda adib Sibirga Nikolayevskiy temiryo'l stansiyasiga yuborilgan mahkumlar bilan birga ketish uchun qamoqxonaga keldi va bu holat asarda jonli tarzda o'z aksini topdi. Roman chop etila boshlaganda, Tolstoy uni qayta ko'rib chiqishni boshladi va keyingi bobning nashr etilishidan bir kun oldin "u tinchlanmadi, yozishni boshlaganida to'xtata olmadi, u qancha ko'p yozgan bo'lsa, shunchalik uzoqlashdi, ko'pincha yozganlarini o'zgartirdi, o'chirib tashladi", deb xotirlaydi Sofya Tolstaya kundaliklarida.

Romanning birinchi tugallanmagan eskizida bosh qahramonning ismi Valerian Yushkov, keyingi tuzatilgan qismida Yushkin edi. Nexlyudov obrazi ko'pgina olimlar tomonidan avtobiografik xarakterga ega, deb tan olingan 80-yillardagi Tolstoyning qarashlarini aks ettiradi. Adibning boshqa asarlarida Dmitriy Nexlyudov obrazining adabiy salafлари mavjud. Ilk marta Tolstoyning asarlarida 1854-yil yozilgan "Bolalik" qissasida shunday nomli qahramon bor edi. "Yoshlik" qissasida u trilogiyaning bosh qahramoni Nikolenkaning eng yaqin do'sti sifatida tasvirlanadi. Bu yerda yosh knyaz Nexlyudov eng yorqin qahramonlardan biridir: aqlli, ma'lumotli, xushmuomala. U Nikolenkaga yordam beradi, uni bema'ni ishlarni qilishdan qaytaradi. Shuningdek, Nexlyudov Tolstoyning "Bodring" va "Yer egasining tongi" qissalarining ham bosh qahramonlaridir. "Kazaklar" qissasidagi markaziy qahramon Nexlyudovning familiyasi muallif tomonidan Olenin deb o'zgartirilgan.

"Tirilish" epigrafdanoq Injildan iqtibos keltirish bilan boshlanib, Injilga murojaat qilish bilan yakunlanadi. Epigrafdan muallif 21-oyatni keltiradi: "Shunda Pyotr unga yuzlanib dediki: Yo Rabbim! Menga qarshi gunoh qilgan birodarimni necha bor afv etsam bo'ladi? Yeti martagachami? Hazrati Iso unga dedi: yetti martagacha demayman senga, yetti karra yetmish martagacha". "Nima uchun birodaring ko'zidagi cho'pni ko'rasan-u, o'z ko'zingdagi xodani payqamaysan?" (3-oyat) Muallif oyatlar orqali asar mazmunidagi voqealarga ishora qilib, bu masalaga shaxsiy qaydlarida o'z munosabatini bildiradi: "Boshqalarni muhokama qilish har



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th January, 2025

doim noto'g'ri. Chunki muhokama qilayotgan insonimizning qalbida nima kechgani va nima kechayotganini hech qachon bilolmaymiz'.

Hayotda bo'lib o'tgan oddiy voqea – bir sud jarayoni asosida yaratilgan bu asarda Tolstoy ijtimoiy adolatsizlikka asoslangan jamiyatning ichki, ma'naviy asoslarini ochib tashlaydi. Mazkur asardagi kishilar taqdiri bilan voqealarning o'zaro chambarchas bog'liqligi masalasi "Hojimurod" qissasining asosini ham tashkil etgan. F. Namozovning yozishicha, Tolstoy "Tirilish", "Sergiy ota" asarlarini "duxobar" deb nomlangan mazhab kishilariga yordam berish uchun chop ettirgan. Hukumat tomonidan quvg'inga uchragan mazhabdagilarga yordam tariqasida qalam haqqini ularga berishga qaror qiladi. Adibning boshida bu asaridan ko'ngli to'lmaydi. 1897-yil 5-yanvar kuni kundaligiga: "Tirilish" ni qayta o'qiy boshladim va uning uylanishga qaror bergan joyiga kelganda uloqtirib yubordim. Hammasi yolg'on, to'qib chiqarilgan, zaif. Buzilgan narsani tuzatish qiyin. Tuzatish uchun uning his-tuyg'ulari va hayotini navbatma-navbat tasvirlash zarur. Ijobiy tomonlarini jiddiylik bilan; salbiy jihatlarini istehzoli kulgi bilan ko'rsatish lozim", deb yozadi. Hattoki T. L. Tolstayaga yozgan xatlarida "Tirilish"dan bezor bo'ldim", degan o'rinlar ham uchraydi.

Nasab jihatidan dvoryanlardan bo'lgan Tolstoy o'z asarlarida, odatda, oliy tabaqa vakillarining hashamdor, ko'zni qamashtiradigan jimjimali hayotini tasvirlaydi. "Tirilish" da esa bu an'anadan chekingan holda oddiy rus xalqining kulrang bo'yoqli hayoti ochib beriladi. Roman knyaz Dmitriy Ivanovich Nexlyudovning o'zi uchun hayot haqiqatini kashf etishi to'g'risida. Knyaz oliy doiraga mansub, bugungi kunda "oltin yosh" deb ataladigan qatlam vakili. Hech qachon quyi sinflarning hayoti, ishi va boshqa muammolarini bilmagan yigit. Oliy doiraning barcha xislatlari uni doimiy ta'qib etsa-da, undagi insoniylik, hayotning chin ma'nosini izlashga intilish butunlay jon bermagan. Knyaz avvaliga "yarim oqsoch, yarim asrandi" bo'lib katta bo'lgan Katerina Maslovaga pok muhabbat qo'yadi. Nexlyudov bunday daqiqani Isoning tirilish bayrami kechasi boshidan kechiradi. O'zining ruhiy dunyosini haqiqiy "men" deb hisoblaydigan yigit harbiy xizmatdan mutlaqo boshqacha fe'l-atvorga ega bo'lib, ya'ni sog'lom tanasi va hayvoniy nafsini "men" deb hisoblaydigan odamga aylanib qaytadi va Katyushani yo'ldan



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th January, 2025

uradi. Bu aybini esa qizning qo'liga 100 so'm tutqazish bilan yuvmoqchi bo'ladi, chunki uning nazdida, "hamma shunday qiladi, bu tabiiy..."

Asarda o'quvchi e'tibori ikki parallel jarayonga qaratiladi: inson nafs va ichki "men" o'rtasidagi kurash hamda jamiyatdagi adolatsizliklar, jinoyatchilikning urchishi sabablari. "Jinoyatchilarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan sharoitni yo'qotish uchun harakat qilish o'rniga bundaylarni yetishtiradigan korxonalarni qo'llab-quvvatlaymiz. Bular fabrika va zavodlar, qovoqxona va fohishaxonalaridir". Jamiyat ularni yo'qotmayotgani, aksincha ularga ehtiyoj sezishi Katyusha misolida ko'rsatib beriladi. Asarda insonlar ustidan hukmronlik qilish emas, balki birgalikda harakat qilishi lozimligi g'oyasi ilgari suriladi. Asarda qo'yilgan asosiy savol: Asl aybdor kim? Sudlanuvchimi yoki sudyalarmi? Asarda juda ko'p va xilma-xil personajlar aks etgan bo'lib, ularning muallif obrazini ochishda o'z o'rnini bor. Masalan, Katerina Maslova, Vera Bogoduxovskaya, Ignatiy Nikofoorovich va boshqalar. Asar voqealari sud jarayoniga asoslangan bo'lib, Nexlyudov aksariyat voqealar ichiga kirib borar ekan, aslida sud ham nazariy tomondan sud ekanligi, amaliy jihatdan sudning maqsadi jamiyatning hozirgi ahvolini saqlash ekanligi, shuning uchun ham jamiyat saviyasidan yuqori turgan va uni ko'tarishga uringan siyosiy jinoyatchilarni va jamiyat saviyasidan past bo'lgan jinoiy shaxs deb ataluvchilarni ta'qib etishi, qatl qildirishini mukammal tarzda o'z fikrlari, qarashlari bilan isbotlab bergan. Qamoqxonadagi ahvol – sudya, prokuror, tergovchilarning inson taqdiriga befarqligi, ularga bir matohdek munosabatda bo'lishi, nochor kishilarning umri shu yerda behuda chirib ketayotgani Nexlyudov hayotida tub burilish yasaydi, muallif ta'biri bilan aytganda, "amaliyot odami" bo'lishga intiladi, uning ruhiyatida "tirilish" – jismoniy ehtiyojlarga qurilgan, tizgini nafs qo'liga tutqazilgan ma'naviy poklik, insoniy oliyjanoblikka o'tish jarayoni boshlanadi. Jamiyatda bunday hol yuzaga kelishiga turtki bo'lgan sabablar va aybdorlarni izlaydi, buning barobarida o'z shaxsiyatida ham **katarsis** jarayoni kechadi. Bu, ayniqsa, Kizeveterning najot topish, Isoning qurbon bo'lgani haqidagi va'zini eshitganida yaqqol namoyon bo'ladi.

Asarda Nexlyudovning do'sti, Senat kotibi Selenin misolida ichki uyg'oqlik ko'rsatiladi. U so'zdagina emas, amalda ham hayotning maqsadi insonlarga xizmat qilishdan iborat, deb tushunardi. Ba'zi odamlar o'z aql-idroklarini butun



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th January, 2025

faoliyatlarini vujudga keltiruvchi asosiy kuch deb hisoblab, boshqalarning fikrini ahamiyatsiz hisoblaydi. Vladimir Simonson ana shunday toifadan edi. Nexlyudov oliyjanoblik qilib va o'tgan ishlar tufayli Maslovaga uylanmoqchi bo'lgan bo'lsa, Simonson hozir uni qanday bo'lsa, shundayligicha sevardi. Shu tariqa Nexlyudov, Maslova va Simonson uchligi vujudga keldi. Buni Krilsov hazil aralash **“uch jism muammosi”** deb atardi. Noyob tafakkurga ega Simonson Maslovani Nexlyudov kabi qurbonlik yoxud saxovat uchun emas, dildan yoqtirib qoldi. Katyusha esa Nexlyudovni yaxshi ko'rardi, shuning uchun u bilan taqdirini bog'lasa, uning hayotini barbod qilgan, Simonson bilan qolgan taqdirda unga erk bergan bo'lardi. Shu sababdan, Nexlyudovdan voz kechib, Simonsonni afzal bildi.

Muallif “Tirilish” da diniy-falsafiy qarashlarini Maslovalar borgan cherkovdagi dinga xilof xatti-harakatlar tasviri bilan ifodalaydi. Bu o'rinda u M. Baxtin o'rgangan telba transformatsiyasiga doir “angrovsirash” shaklidan foydalanadi. Ya'ni, cherkovdagi odamlar nima uchun ibodat qilayotganlarini o'zlari ham anglamagan holda bema'ni mashg'ulotlar bilan band edilar. Bu yerda Iso nomidan o'tkazilgan marosim aslida Isoni tahqirlash ekanligi cherkovda hozir bo'lganlarning hech birining esiga ham kelmas edi. “Iqromnoma” da adib nasroniylarning bayramlari – Me'roj, Xudoning jamol ko'rsatishi, cho'qintirish, xususan tirilish hodisasi haqida so'z yuritadi. Asarda tirilish ikki xil ma'noda keladi:

1. Dmitriy Nexlyudovning Maslovani to'g'ri yo'lga qaytarish asnosida o'zi ham ma'naviy jihatdan poklanishi masalasi;
2. Iso bilan bog'liq marosim nomi. Nexlyudovning ko'nglida Maslovaga nisbatan ilk muhabbat shu kuni tug'iladi. Muallif bu bilan ular o'rtasidagi sevgining dastlab pok bo'lganiga ishora qiladi.

Romanni Lev Nikolayevich o'z an'anasiga sodiq qolgan holda “tolstoycha” uslubda yakunlaydi. Yana dinga murojaat qiladi. Nexlyudov hayotidagi barcha adolatsizlik, yo'ldan ozishlarning zamiri nimadaligiga dindan javob topadi. Oldinlari o'ziga allaqanday erish, kulgili, hatto hazilday tuyulgan fikrlarning to'g'riligi hayotda o'z tasdig'ini topib, oxiri hech qanday Shubha tug'dirmaydigan haqiqatga aylanadi. Shu tariqa u “Odamlar har doim o'zlarini Xudo oldida gunohkor deb bilishlari, shuning uchun ham boshqalarni jazolash va tuzatishga ojiz



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th January, 2025

ekanliklariga iqrar bo'lmoqlari kerak. Hammani kechiring, zero dunyoda gunohdan pok odamning o'zi yo'qki, u boshqaga jazo bera olsin va uni tuzata olsin", degan xulosaga keladi va shu kundan boshlab Nexlyudov uchun butunlay yangi hayot boshlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Lev Tolstoy. Tirilish. – T., "Ilm-ziyo-zakovat", 2019.
2. Lev Tolstoy. Asosiy qahramonlarim – haqiqat. – T., "O'zbekiston", 2019.
3. Jo'raqulov U. Mixail Baxtin kashfiyotlari // Jahon adabiyoti. – T., 2014. 11-12-sonlar.
4. Aliyev T. Tolstoyning e'tiqodi. – T., "O'zbekiston", 2005.
5. Baxtin M. Romanda zamon va xronotop shakllari. B. 179.